



O'ZKIMYOSANOAT
AKSIYADORLIK JAMIYATI

2023-yil 28-fevral

“O'zkiymyosanoat” aksiyadorlik jamiyati ustav fondini kamaytirish to'g'risida xabarnoma

“O'zkiymyosanoat” aksiyadorlik jamiyati ustav fondini kamaytirish to'g'risida xabarnoma

KREDITORLAR DIQQATIGA!

“O'zkiymyosanoat” AJ O'zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonunining 20-moddasiga muvofiq Sizga quyidagilarni ma'lum qiladi.

“O'zkiymyosanoat” aksiyadorlik jamiyati yagona aksiyadorlarining 2023 yil 27-fevraldagi 3-son qaroriga asosan yagona aksiyadorga tegishli umumiy nominal qiymati 279 685 715 so'm bo'lgan 244 267 dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz oddiy aksiyalarni bekor qilish yo'li bilan jamiyatning ustav fondi 904 343 636 650 (to'qqiz yuz to'rt milliard uch yuz qirq uch million olti yuz o'ttiz olti ming olti yuz ellik) so'm miqdoridan 904 063 950 935 (to'qqiz yuz to'rt milliard oltmish uch million to'qqiz yuz ellik ming to'qqiz yuz o'ttiz besh) so'mga kamaytirildi.

Kreditorlar o'zlariga bildirish yuborilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay jamiyatdan o'z majburiyatlarini muddatidan oldin bajarishini va ustav fondi kamaytirilishi bilan bog'liq zararlarning o'rnini qoplashini talab qilishga haqli.

Qo'shimcha ma'lumotlarni olish uchun:

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 38-uy.

Telefon: (+99878)140-74-08, (+99878)140-74-70.

E-mail: info@uzkiymyosanoat.uz

INN: 200 621 367.

source:

"O'zkiymyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiymyosanoat.uz/oz/corporate/announcement/ustav-fondini-kamaytirish>